

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

YO‘LDASHEV XASANBOY SULAYMON O‘G‘LI

**ARRA TISHLARI PROFILI VA TEZLIK PARAMETRLARINING
AEROMEXANIK TOLA TOZALASH USKUNASINI
SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on technical sciences**

Yo‘ldashev Xasanboy Sulaymon o‘g‘li

Arra tishlari profili va tezlik parametrlarining aeromekanik tozalash tola tozalash uskunasi samaradorligiga ta’siri..... 3

Йўлдашев Хасанбой Сулаймон ўғли

Влияние профиля и скоростных параметров зубьев пил на эффективность машины для аэромеханической очистки волокна.... 23

Yuldashev Khasanboy

The impact of saw tooth profile and operational speed parameters on the efficiency of a aeromechanical fiber cleaning machine..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Спикок опубликованных работ
List of published works..... 46

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

YO‘LDASHEV XASANBOY SULAYMON O‘G‘LI

**ARRA TISHI PROFILI VA TEZLIK PARAMETERLARINING
AEROMEXANIK TOLA TOZALASH USKUNASINI
SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4473 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ntsuz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Sharibboy Tulanovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Qayumov Jo'ramirza Abdiramatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Safarov Nazirjon Muxammadjonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil "02" iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, tel. (+99855) 251-43-04, 455-43-04. e-mail: info@ntsuz, namTSI@exat.uz, Namangan to'qimachilik sanoati instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№26-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160605, Namangan sh., Islom Karimov ko'chasi 12-uy, tel. (+998) 69-234-1485. Web site: www.namdtu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "21" iyun kuni tarqatildi.
(2025 yil 06-fevraldagi №40-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M. Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T. Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

J.K. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasining asosiy bosqichi sifatida, paxta tolasini chigitdan ajratish va tolani tozalash jarayoni, texnika va texnologiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlarga va masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Xozirgi kunda dunyoning Xitoy, Hindiston, AQSh, Turkiya kabi paxta sanoati rivojlangan mamlakatlarida paxtaga ishlov berish texnologik jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish usul va vositalarini takomillashtirish, avtomatlashtirilgan hamda aqlli texnologiyalar va loyihalashning zamonaviy usullaridan foydalangan holda paxtaga ishlov berish uskunalarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish, paxtaga ishlov berish jarayoniga zamonaviy boshqarish tizimlarini olib kirishga sohatning ustuvor vazifalari sifatida qaralmoqda. Bu borada, jumladan, yakuniy jarayon sifatida paxta tolasini tozalash texnika va texnologiyasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta tolasiga bo'lgan talabning o'sishi natijasida to'qimachilik tolalarini tozalash muammolari bilan shug'ullanadigan ilmiy muassasalarda jarayonlar samaradorligini oshirish, olingan tolaning zaruriy sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ta'minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish va mavjud uskunalarni takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytiruvchi, resurstejamkor, samarali uskuna va uskunar konstruksiyasini ishlab chiqish, ishchi organlar parametrlari va ishlash rejimlarini optimallashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, tolan tozalash jarayonida mahsulot sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va nobudgarchiligini kamaytirish usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz hududida paxta yetishtirish, uning urug'chiligini rivojlantirish, paxta sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va qayta jihozlash, paxtani dastlabki ishlash jarayoni samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini yuksaltirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish,.. yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish" vazifalari belgilab berilgan¹. Bu vazifalarni bajarishda, paxta tolasini tozalash jarayoni samaradorligini oshirish, tolada texnik nuqsonlar paydo bo'lishining oldini olish, tolaning dastlabki sifat ko'rsatkichlari saqlanishini ta'minlovchi arrali silindr konstruksiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-yanvardagi PQ-23-sonli "Paxta xomashyosini yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-sonli "Paxta-to'qimachilik

¹ The International Cotton Advisory Committee. Snippets on Cotton production & Trade 2021. June 2021, Pp.2-3. <https://www.icac.org> ² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni. 4-5 b. <https://lex.uz/uz/>.

klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633 sonli "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3008 sonli "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy- me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar mamlakatda fan va texnologiyalar rivojlanishining "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'qimachilik tolalarini tozalashning fundamental va amaliy asoslarini ishlab chiqish, tola tozalashning mavjud usul va vositalarini takomillashtirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan W.S.Anthony, S.E.Hughs, Carlos B.Armijo, D.W.Van, Sinh Lee, W.Stanley, John D.Wandjure va boshqalar.

Paxta tolasini tozalash jarayoni va uskunalari hamda ishchi qismlarini takomillashtirish, ularning ratsional ishchi parametrlari va rejimlarini aniqlash va tola tozalash jarayoni ish unumi va samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tolaning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yaxshilash, chiqindi tarkibidagi tola miqdorini kamaytirish bo'yicha O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: D.A.Kotov, A.I.Krigin, G.I.Miroshnichenko, X.T.Axmedxodjayev, R.M.Muradov, O.Sh.Sarimsakov, X.K.Tursunov, I.T.Maksudov, X.X.Aminov, E.I.Gromova, E.E. Gaybnazarov, U.M.Muminov, D.X.Umarxodjaev. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida tola tarkibidagi iflosliklarni samarali ajratadigan, chiqindilar tarkibidagi yigiriluvchan tolalar miqdorini minimal darajaga tushiradigan hamda mahsulot sifatini oshiradigan tola tozalagich konstruksiyasini ishlab chiqish va mamliyotda qo'llash muammolarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, paxtani uskunada terish salmog'i ortib borishi bilan toladagi ifloslik darajasining ortib borayotgani sababli ishlab chiqarilayotgan toladagi ifloslik va nuqsonli aralashmalarning massaviy ulushi ko'paygani, yigiriluvchan tolalar miqdorini minimal darajaga tushirish, tolani tozalash uskunasi ishchi silindr arrasi tishlari profilining tolani tozalash jarayoni parametrlariga ta'sirini o'rganish va olingan natijalarga asoslangan holda arra tishlarining ratsional profilni ishlab chiqish orqali tolani tozalash jarayoni samaradorligini oshirish tolani tozalash jarayonini optimallashtirish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan to'qimachilik sanoati instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aeromexanik tola tozalash uskunasi arra tishlarining ratsional profilini ishlab chiqish orqali aeromexanik tola tozalash jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

mavjud ilmiy adabiyotlardan paxta tolasini tozalash texnologik jarayonida arrali silindr va arra tishlari konstruksiyasining tola tozalash jarayoni parametrlariga ta'sirini o'rganish;

paxta tolasini tozalash texnologik jarayoni matematik modelini ishlab chiqish va tahlil qilish orqali tola tozalash uskunasi arra tishlarining ratsional shakli va o'lchamlarini aniqlash;

nazariy tadqiqotlar natijalari asosida tola tozalash uskunasini arrali silindrning ratsional konstruksiyasini ishlab chiqish va uning tajribaviy nusxasini tayyorlash;

amaldagi to'g'ri oqimli aeromexanik tola tozalash uskunasi bilan takomillashgan arrali silindr o'rnatilgan tola tozalash uskunasida tozalangan paxta tolasini sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va qiyosiy tahlillar o'tkazish;

takomillashtirilgan arrali silindrga ega bo'lgan aeromexanik tola tozalash uskunasini ishlab chiqarish sinovlaridan o'tkazish va uni joriy qilish natijasida olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida chigitidan ajratilgan paxta tolasini va aeromexanik tola tozalash uskunasi olingan.

Tadqiqotning predmetini paxta tolasini tozalash texnologik jarayoni va tola tozalash uskunalarning ishchi parametrlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika va ehtimollar nazariyasi, nazariy va amaliy mexanika, texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish, matematik statistika va eksperimentlarni rejalashtirish hamda optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar tashkil qiladi:

tolalash jarayoni samaradorligi aeromexanik tola tozalash uskunasining ishchi silindrni arra tishlari bilan tola massasi ta'sirlashuv maydoniga bog'liqligidan kelib chiqib, tola tozalash uskunasi arra tishlarini ikki yonga og'dirish orqali arra tishlari ta'sir maydonini oshirish usuli ishlab chiqilgan;

tolalash uskunasining tozalash samaradorligi uning arra tishlari profiliga bog'liqligini hisobga olgan holda, tish profillarini avval, bir tomonga, keyin, ikkinchi tomonga, ketma-ket, 1, 2, 3 mm oraliq masofaga og'dirish orqali tola massasi bilan ta'sirlashuv maydoni oshirilgan ishchi silindr konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

paxta tolasini tozalash jarayoni samaradorligining uskunani ishchi silindri aylanish chastotasiga bog'liqligidan kelib chiqib, tolaning ifloslik darajasiga qarab ishchi silindrning aylanish chastotasini boshqarish mexatronik tizim ishlab chiqilgan;

paxta tolasini aeromexanik usulda tozalash uskunasi samaradorlik ko'rsatkichlari ishchi silindirining tezlik parametrlari va arrasi tishlari profiliga bog'liqligini hisobga olgan holda, arra tishlari ikki yonga og'dirilgan va aylanish chastotasi invertor yordamida boshqariladigan tola tozalash uskunasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tola tozalash jarayoni nazariy va amaliy tadqiqotlari natijalari tahlili asosida tola tozalash uskunasi ishchi silindri arra tishlari ketma-ket, avval, bir tomonga, keyin, ikkinchi tomonga, navbati bilan 1, 2, 3 mm oraliq masofaga og‘dirish orqali tola massasi bilan ta’sirlashuv maydoni oshirilgan ishchi silindr konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

paxta tolasini tozalash jarayoni samaradorligining tola tozalash uskunasi ishchi silindri aylanish chastotasiga bog‘liqligi asoslab berilgan hamda tolaning ifloslik darajasiga qarab, ishchi silindrning aylanish chastotasini boshqaruvchi mexanizm ishlab chiqilgan;

paxta tolasini aeromexanika tozalash uskunasini samaradorlik ko‘rsatkichlari ishchi silindrining tezlik parametrlari va arra tishlari profiliga bog‘liqlik qonuniyatlari tahlili asosida, arra tishlari ikki yonga og‘dirilgan va aylanish chastotasi invertor yordamida boshqariladigan tola tozalagich konstruksiyasi ishlab chiqilib va yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan ishlab chiqarishga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning moddiy olamning amal qilish qonuniyatlariga zid kelmasligi, ularda texnologik jarayonlarni o‘rganishning standartlashgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mos kelishi, ularning umum qabul qilingan baholash mezonlariga to‘g‘ri kelishi, ishlab chiqarish sinovlarida erishilgan ijobiy natijalar va ularning maxsus ishchi guruh tomonidan rasmiylashtirilgan dalolatnomalarda aks etirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan jarayonlar matematik modellarining tola tozalash jarayoni to‘g‘risidagi bilimlarning rivojlanishiga xizmat qilishi, hamda ularning paxta tolasini iflosliklardan tozalash jarayoni samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilab berganligi, xususan, ular yordamida arra tishlarining tolani iflos aralashmalardan samarali tozalanishini ta‘minlaydigan arra disk tishlari profilini ishlab chiqishga asos bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan arrali tola tozalash uskunasining tajriba va ishlab chirish sinovlari natijalarining ijobiyliги, uskuna tolani chiqindilardan tozalash samaradorligi yuqoriligi va undan chiqqan chiqindilar toladorligining kamligi hamda takomillashtirilgan arrali silindrning yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aeromexanik tola tozalash uskunasi arralari tishlarining ratsional profilini ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda olingan natijalar asosida:

to‘g‘ri oqimli, arrali silindrga ega bo‘lgan aeromexanik tola tozalash uskunasini ishlab chiqarishga joriy etildi (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi 2024 yil 20 noyabrda № 03-25/3125 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada aeromexanik tola tozalash uskunasining tozalash samaradorligi 10% ga oshishi va chiqindi tarkibidagi tola miqdori 3 % ga kamayishi hamda tola sifat ko‘rsatkichi bir nav yuqoriga ko‘tarilishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va

muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shu jumladan 4 ta xorijiy va 5 ta mamlakatdagi ilmiy jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxta tolasini tozalash bo'yicha ilmiy-adabiy tahlil**" deb nomlangan birinchi bobida paxta sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan paxta tolasini tozalash, paxta tolasini yetishtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning texnologiyasi, paxta tolasini tozalash bo'yicha dunyodagi yetakchi firmalarning eng so'nggi markadagi jihozlarini tavsifi, bugungi kunda paxta tolasini tozalash bo'yicha olimlar va paxta tozalash korxonalarining mutaxassislarining oldida bir qator qilinishi lozim bo'lgan ishlar va yechilishi zarur bo'lgan muammolar, tozalash uskunalari ishchi qismlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar va umumiy holati tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida dissertatsiya ishining vazifalari va tadqiqot yo'nalishlarga tegishli aniqliklar kiritilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxta tolasini tozalash jarayonini nazariy tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida paxta tolasini tozalash jarayonidagi muammolar sabablarini o'rganish, paxta tolasini bilan havo aralashmasi oqimi harakatini modellashtirish, toladan mayda zarrachalarni ajratish jarayonining matematik modeli va uning tahlili olib borilgan.

Tola massasining turli yuza bo'ylab harakati davomida uning tarkibidagi zarracha bilan turli yuza orasida kontakt kuchi hosil bo'lib, uning ta'siri ostida zarrachalar fazoviy harakatga keladi, buning natijasida ularning bir qismi yuzaning ochik joylaridan tashqariga chiqib ketadi. Shunday mexanizmi tavsiflash uchun A.G.Sevostyanov tomonidan model taklif etilgan. Bu modelga ko'ra, turli yuzadagi zarracha miqdorining kamayishi uning miqdoriga va yuza bo'ylab harakat tezligiga proporsional bo'ladi. Shu model asosida yolg'iz tola tutami tarkibidan ifloslik zarrachalarini ajratish jarayonini nazariy o'rganib chiqamiz. Zarracha ajralish jarayonini modellashtirishdan oldin tola tutamining kolosniklar orasidagi tezligini aniqlash lozim bo'ladi.

Paxta tolasini tozalash jarayoni nazariy tadqiqotlarida A.G.Sevostyanov tomoni tozalash jarayoni uchun taklif etgan modeldan foydalanamiz.

Faraz qilaylik, boshlang'ich massasi M_0 bo'lgan tola tutami $t=0$ momentdan boshlab tola tozalagich ishchi kamerasiga kirib keladi. U aylanuvchi arrali silindr tishlariga ilinib, kolosniklar orasida harakatda bo'lsin. Undan ifloslik zarrachalari ajralishi sababli uning massasi M ga teng bo'lsin. Koordinata boshini O nuqtada olib, Ox o'qini gorizont bo'ylab o'ngdan chapga, ordinata o'qi Oy ni unga perpendikulyar qilib yuqoridan pastga yo'naltiramiz. Tola tutami yuzada BC egri chiziq bo'ylab bir o'lchovli harakat qiladi. Polyar qutbini O nuqtada o'rnatib, BC egri chiziq tenglamasini qutb koordinata sistemasida $r = r(\varphi)$ deb qabul qilamiz.

Tola tutami kolosnikli panjaraning $B(\varphi_0, r_0)$ nuqtasidan harakatlanadi va $C(\varphi_1, r_1)$ nuqtada tozalash zonasidan chiqib ketadi (bunda $r_0 = r(\varphi_0)$, $r_1 = r(\varphi_1)$). Faraz qilaylik $t > 0$ momentda tola tutami BC chiziqning $A(r(\varphi), \varphi)$ nuqtasida bo'lib B nuqtadan S masofada bo'lsin. Tola tutamini massasi o'zgarmas moddiy nuqta, deb qabul qilamiz va uning BC chiziq ustidagi harakat tenglamasi va normal kuch ifodasini S.M.Targning Nazariy mexanika kitobidan foydalanib yozamiz.

$$M_0 \frac{d^2 s}{dt^2} = T + M_0 g \sin \psi, \quad N = \frac{M_0 \dot{s}^2}{\rho(\varphi)} - M_0 g \cos \psi \quad (1)$$

(1) tenglamada T bilan tola tutamiga ta'sir etayotgan urinma kuchlar yig'indisi belgilangan. Bu yo'nalishda tola tutamiga og'irlik kuchining proeksiyasi, Kulon kuchi, hamda kolosnik orqali tola tutamiga zarba kuchi ta'sir etadi. Tola tutami zarba kuchining ta'sirini to'liq yutib yubormaydi, balki uni qisman so'ndiradi. Shuning uchun ushbu zarba kuchi tola tutamining va kolosnikning nisbiy harakati, ya'ni ularning ko'chishlari va tezliklarining ayirmasi orqali ifodalanadi. Bu hodisa odatda mexanik sistemasidagi elastiklik va qovushqoqlik xususiyatlari bilan bog'liq.


Shuning uchun bu kuchni tola tutami bilan kolosnik ko'chishlari va tezliklarining ayirmasiga proporsional qilib olamiz.

$$T = -fN + k(v_0 t - s) + \eta(v_0 - \dot{s}),$$

bu yerda: f – keltirilgan ishqalanish koeffitsienti,

v_0 – arra tishlari chiziqli tezligi,

k, η – elastiklik va qovushqoqlik proporsionallik koeffitsientlari.



1-rasm. Tolaning kolosniklar orasidagi harakati sxemasi

Shuningdek, tola tutami odatda ikkita kolosnik ta'sirida bo'lib, shu sababli tenglamada zarba kuchining qiymati ikki barobar olinadi. Bu degani, harakat va ta'sir kuchlarini hisoblashda tola tutamining ikkita ta'sir nuqtasi hisobga olinadi. Odatda tola tutami ikkita kolosnik ta'sirida bo'ladi, shuning uchun tenglamada T ning ikkilangan qiymati olinadi yuqoridagi (1-rasmga qarang).

(1) tenglama $\varphi = v_0 t / r_0 + \varphi_*(t) + \varphi_0$ tenglikni e'tiborga olgan holda nisbiy φ_* burchakni topish quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\ddot{\varphi}_* = -\frac{2k\varphi_*}{M_0} - \frac{2\eta\dot{\varphi}_*}{M_0} + \frac{g}{r_0} [\cos(\varphi_* + v_0 t / r_0 + \varphi_0) - f \sin(\varphi_* + v_0 t / r_0 + \varphi_0)] - f(\dot{\varphi}_* + v_0 / r_0)^2 \quad (2)$$

(2) tenglama $\varphi_*(0) = \varphi_0$, $\dot{\varphi}_*(0) = (v_k - v_0) / r_0$ shartlarda sonli usul bilan echiladi. π -teoremasidan foydalanib (4) tenglamani o'lchamsiz birliklarda yozamiz:

$$\varphi_*'' + \omega^2 \varphi_* + 2n\varphi_*' + f(\varphi_*' + \bar{v}_0)^2 - \cos(\varphi_* + \varphi_0 + \bar{v}_0 \tau) + f \sin(\varphi_* + \varphi_0 + \bar{v}_0 \tau) = 0 \quad (3)$$

Bu yerda: $\varphi_*' = \frac{d\varphi_*}{d\tau}$, $\varphi_*'' = \frac{d^2\varphi_*}{d\tau^2}$, $\tau = t\sqrt{g/r_0}$, $\omega^2 = \frac{2kr_0}{M_0g}$, $n = \frac{\eta}{M_0} \sqrt{\frac{r_0}{g}}$,
 $\bar{v}_0 = v_0 / \sqrt{r_0g}$,


Boshlang'ich shartlar quyidagicha bo'ladi: $\varphi_*(0) = 0$, $\dot{\varphi}_*(0) = \bar{v}_k - \bar{v}_0$


$(\bar{v}_k = v_k / \sqrt{r_0g})$. $f = 0.3$, $\bar{v}_0 = 1$, $\varphi_0 = 30^\circ$, $\varphi_1 = 120^\circ$ $\omega^2 = 5$, $n = 1$

qiymatlarini bo'lsa, tola tutamining burchak tezligi \bar{v}_k ning har xil qiymatlarida $\varphi'(\tau)$

(3) tenglama Maple-2022 dasturida Runge-Kutta usuli bilan sonli echiladi. 2-rasmda tola tutamining BC chiziq bo'ylab tezligi $\varphi'(\tau)$ larning o'lchamsiz vaqt $\tau = t\sqrt{g/r_0}$ bo'yicha o'zgarish \bar{v}_k ning har xil qiymatlaridagi grafiklari keltirilgan (2-rasmga qarang).

Punktir chiziq bilan tola tutami kolosnik bilan absolyut bog'langan holdagi ($k \rightarrow \infty$) tezligi ko'rsatilgan. Grafiklar tahlili tola tutami sirtining elastik xususiyati uning tezligiga muhim ta'sir o'tkazishi mumkinligini ko'rsatyapti. Agar, tola tutamining boshlang'ich tezligi $v_k < v_0$, bo'lsa, vaqt davomida tola tutami arra tishi tezligiga erishib to'plangan elastik kuch ta'sirida uning tezligidan qisman oshishi, agar $v_k \geq v_0$ bo'lsa, tola tutami, elastik kuchning qovushqoqlik xususiyati sababli, o'z tezligini yo'qotish mumkinligi kuzatilyapti.






2-rasm. Tola tutami o'lcamsiz burchak tezligi φ' ning $\bar{v}_k = v_k / \sqrt{gr_0}$ har xil qiymatlarida o'lcamsiz vaqt $\tau = t\sqrt{g/r_0}$ bo'yicha o'zgarish grafiklari

Olingan natijalarga ko'ra paxta tolasining zichligi kamayib borgan sari undan ajralib chiqayotgan ifloslik massasi ortib boradi. Bunga ko'ra tozalash jarayonida tolaning zichligini maksimal darajada kamaytirish, ya'ni tolni yuqori darajada titish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning “**Paxta tolasini tozalash jarayoni eksperimental tadqiqotlari**” deb nomlangan uchinchi bobida taklif qilinayotgan tola tozalash qurilmasi konstruksiyasi avval olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahliliga asoslanib, kerakli ish unumdorligini hisobga olgan holda tayyorlandi.

Taklif etilayotgan aeromexanik tola tozalash uskunasiidagi arrali silindr soni 1 ta bo'lib, unda joylashgan arralar soni 210 ta, arrachalarda balandligi 7 mm bo'lgan 160 ta tishlar mavjud. Arralar orasidagi qistrima diametri 100 mm, qalinligi 8 mm qistirmalar ajratib turadi.

Tozalagichning arrali silindrida tolni titilish darajasini oshirish va tolalarni arra tishlariga ilashish ehtimolligi oshirish maqsadida tishlar profili hamda shakliga o'zgartirish kiritildi, ya'ni har bir tish qadamlari navbati bilan o'ng va chap tarafga muayyan burchak ostida og'dirib chiqilgan arraning sxemasi yaratildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Tishlari navbatma-navbat yonga og'dirilgan arra tishlarining ko'rinishi

Tishlari qadam va qadam yonga og‘dirilgan arralar o‘rnatilgan tola tozalagichning tajriba nusxasini ishlab chiqarish uchun NamTSI “To‘qimachilik tolalari muhandsiligi” kafedrasining loyihalash laboratoriyasida chizmalari tayyorlandi. Tayyorlangan chizmalar asosida tishlari qadam va qadam yonga og‘dirilgan arralar ishlab chiqarildi va laboratoriya sharoitidagi 1VPU tola tozalash qurilmasi arrali silindrining o‘rniga o‘rnatildi.

Ushbu chizmada tola tozalash qurilmasining yangi profildagi arra ko‘rinishi keltirilgan bo‘lib, unga e‘tibor beradigan bo‘lsak arra tishlari navbat va navbat bilan 1 mm, 2 mm, 3 mm oraliqda oldingi tishga nisbatan o‘ng va chap tarafga muayyan burchakga og‘dirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Yangi profilga ega arra tishi konstruksiyasi o‘lchamlari va og‘ish burchaklari o‘zgarishi mumkin.

Navbatma-navbat yonga og‘dirilgan tishlarning muhim xususiyatlaridan biri tolani olib olish qobiliyatidir. Bu arrani tishlarining o‘zaro joylashuvi, paxta tolalarini tozalash va ajratishda optimal samaradorlikni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan. Har bir tishning o‘ziga xos harakati paxta tolalarini ushlab olish va tozalashni yaxshilash uchun ishlatiladi. Tishlarning joylashuvi va harakati tolaning tozalangan holatiga va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Arraning tishlari orasidagi farq va ularning harakat yo‘nalishlari paxta tolalarining aralashtirilishini va tozalash jarayonining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu tizim paxta tolasini yaxshiroq tozalash va undagi iflosliklarni ajratilishiga yordam beradi, hamda tola va mayda zarra iflosliklarning ajratilishini ta‘minlaydi. Arra tishlari tolaning o‘ziga qarshi harakat qilib, har bir tish o‘z o‘rnida paxtani ajratishda rol o‘ynaydi.

Arra tishlari orasidagi masofa va og‘ish, tolaning qanday ajratilishi va qirqilishi bilan bevosita bog‘liq. Tishlarning chiziqli harakati tolani tutib, o‘zlariga yaqinlashtiradi. Bu holatda, tishlar va paxta tolasini o‘rtasidagi kuchlar, ayniqsa, ishqalanish kuchi orqali tola tishlar orasiga tiqilib, ajratilish uchun o‘zgartiriladi.

Navbatma-navbat yonga og‘dirilgan arra tishlari tola samarali olib olish uchun maxsus shakllantirilgan. Bunday tishlar har biri o‘z navbatida chap va o‘ng tomonga burilgan bo‘lib, kesish jarayonida kengroq va silliqroq kesim hosil qiladi. Har bir tish oldingisiga nisbatan chap yoki o‘ng tomonga burilgan bo‘ladi. Tishlarning yon tomonga egilganligi sababli kesim tor bo‘lib qolmaydi. Arra tishi tolaga kamroq ishqalanadi, chunki tishlar navbat bilan egilgan.



4-rasm. 1VPU rusumli tola tozalagichning laboratoriya nusxasi

Uskunaning dastlabki eksperimental tajriba natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, tola bo'yicha ish unumdorligi 450 kg/h, tozalash samaradorligi birinchi navlarda 35-45 %, past navlarda 40-55 %, chiqindi toladorligi 23 % ni tashkil etdi (4-rasmga qarang).

Ishchi silindrdagi arralar sonini o'zgartirish uchun arralar orasidagi qistirma qalinligini o'zgartirish kerak bo'ladi.

Tahlillar asosida, eksperimentlarimizda arralarning soni amaldagi 305 taga teng bo'ladi va buni qistirma qalinligini o'zgartirish yo'li bilan o'zgartirish mumkin. Paxta tolasini tozalash jarayoni parametrlarini aniqlash uchun aktiv eksperiment o'tkazildi. 1-jadvalda tajriba rejasi keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Kiruvchi omillar sifatida X_1 – arrali silindrning aylanishlar soni, min^{-1} hisoblanadi, ikkinchisi X_2 – arra tishlari soni, dona; uchinchisi X_3 – arrali silindrdagi arralar tishlari balandligini olamiz.

Chiquvchi parametrlar sifatida esa tola tozalagichning eng asosiy texnologik ko'rsatkichlari: Y_1 – tozalash samaradorligi (%), Y_2 – ifloslik tarkibidagi tola miqdori (%) ni qabul qilamiz. Tajriba natijalarining yuqori aniqligini ta'minlash uchun bir xil reja asosida ikkita parallel tajriba o'tkazamiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tajriba ($p = 1$) o'tkazish rejasi

| Omillar | x_{imin} | x_{imax} | Δ_i | x_{i0} |
|---|------------|------------|------------|----------|
| Arrali silindrning aylan ishlar soni, min^{-1} | 1400 | 2000 | 300 | 1700 |
| Arra diskdagi tishlar soni, dona | 140 | 280 | 70 | 210 |
| Arra tishlari balandligi, mm | 3 | 9 | 3 | 6 |


O'tkazilgan rejali tadqiqotlar natijalari qayta ishlash yo'li bilan regressiya tenglamalari olindi. Student kriteriyasi bo'yicha regressiya koeffitsiyentlarini ahamiyatlikka tekshirildi va ahamiyatsiz koeffitsiyentlarini tashlab yuborildi.

Hosil bo'lgan tenglamani adekvatlikka tekshirildi. Buning uchun Fisher mezonidan foydalanildi. Fisher mezoni bo'yicha hisoblaganimizda Y_1 tenglama 95 % aniqlikda jarayonga monand (adekvat) ekanligi aniqlandi:

$$Y_1 = 42.4 + 1.2X_1 + 1.4X_2 - 0.5X_3 - 0.64X_2X_3 \quad (4)$$

$$Y_2 = 3.81 + 0.39X_1 - 0.34X_3 - 0.29X_1X_3 + 0.21X_2X_3 \quad (5)$$

Regression tenglamalar bo'yicha tola tozalash uskunasi tozalash samaradorligi (A) va tozalash uskunasidan chiqadigan chiqindi tarkibidagi tola miqdorining (B) arralar aylanish tezligi, arralar tishlari soni va tishlar balandliga bog'liq ravishda o'zgarishi grafiklari olindi (5-rasmga qarang.).



5-rasm. Tola tozalash uskunasi tozalash samaradorligi (a) va chiqindi tarkibidagi tola miqdorining (b) arralar aylanish tezligi, tishlar soni va balandligiga bog‘liq holda o‘zgarishi

Tola tozalash uskunasining tozalash samaradorligi eng yuqori va ifloslik bilan chiqib ketayotgan tola miqdori eng kam bo‘lgan holat uchun eng optimal qiymat sifatida quyidagilar qabul qilindi:

Arrali silindrning aylanishlar soni – 1600 ayl/min;

Arra tishlarining soni – 240 dona;

Silindrdagi arralar tishlari balandligi – 7 mm.

Ushbu qiymatlarda erishilgan tozalash samaradorligi mavjud uskuna ko‘rsatkichidan 10% ga, ifloslik tarkibidagi tola miqdori 3 % kamayganligi bo‘ldi.

Bir bosqichli va ko‘p bosqichli tola tozalash uskunalarida texnologik yuklanishlar, arra va qistirmalar og‘irligidan yuklanishlar arrali silindr valiga tushadi.

Arrali disk tishlari va kolosniklar orasidagi masofaga ijozat (dopusk) qat’iy nazorat qilinadi va $\pm 0,3 - 0,5$ mm ni tashkil qiladi.

Arra disklari diametri 310-320 mm bo‘lganida arrali silindrlarning aylanish tezligi 1450 ayl/min ni tashkil qiladi. Tozalash samaradorligini oshirish maqsadida arrali silindrlar tezligini 2000 ayl/min gacha oshirishga harakat qilingan, lekin valning tebranishi hosil bo‘lgani uchun uskunaning ishi qiyinlashgan.


Tola tozalash uskunalarini arrali silindr vallariga quyilgan talablarni mas’uliyatligini inobatga olib, ularni kritik aylanishlar soniga ham hisoblanadi.

Kritik tezlikni hisoblashda A.N. Krilov, A.I. Makarov, I.YA. Korotitskiy, M.Ya. Kushul, Reley va boshqalarning yaqinlashgan uslublaridan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, detalning kritik tezligi umumiy holda uning bikrligi K ga, ya’ni materialiga, va massasi M ga bog‘liq: $\omega_{kr} = \sqrt{K/M}$.

Tola tozalagich arrali silindri kritik tezligini hisoblashda SolidWorks dasturining Simulation paketidan foydalanildi. Bizning holatda birinchi kritik chastota 37,768 Hz ni tashkil qildi. Buni aylanishlar soniga o‘tkazish uchun $1 Hz = 60$ ayl/min dan foydalanamiz. Natijada, valning birinchi kritik aylanish tezligi $37,768 Hz = 60 \cdot 37,768 = 2266$ ayl/min ni tashkil qildi (6-rasmga qarang).

$n_{1kr} \geq 1,3n_{ish}$ shartidan n_{ish} ni topamiz: $n_{1kr}/1,3 \geq n_{ish}$; $2266/1,3 \geq n_{ish}$; 1743 ayl/min $\geq n_{ish}$. Demak, tola tozalash uskunasining mavjud arrali silindr valini yuqorida keltirilgan yuklanishlarda 1743 ayl/min gacha tezlikda aylantirish mumkin.



6-rasm. Tola tozalagich arrali silindrining SolidWorks dagi kritik chastota epyurasi

Yuqoridagi amallarni takomillashtirilgan arrali silindr uchun bajarib, arra va qistirmalar soni kamaygani natijasida uning massasi kamayishi hisobiga arrali silindrni 1912 ayl/min gacha aylantirish mumkinligi aniqlandi.

Tola tozalagich arrali silindri parametrlarini optimallashtirishning bir nechta usullari bo‘lib, ulardan biri uning aylanish tezligini optimallasdir.

Shu maqsadda biz bir qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazdik. Bunda, yuqorida tavsiflangan eksperimental qurima elektr yuritkichi tok manbaiga inverter orqali ulandi va arrali silindr aylanish chastotasini keng miqyosda o‘zgartirish imkoniyati yaratildi. Yuqorida o‘rtacha namlik va ifloslik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan paxta tolasini uchun arrali silindr tezligi aniqlangan bo‘lsa, bu tadqiqotlardan farqli ravishda, yangi izlanishlarda turli ifloslik va namlik darajasiga ega bolgan paxta tolasini tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish maqsad qilindi.

